

12-dars. Uch xonali songa ko'paytirish.



1. Tenglamalarni yeching. Javoblarni **kamayish** tartibida joylashtiring va mos harflardan so'z tuzing. Bu so'z haqida nimalarni bilasiz?

H $x : 60 = 9$

S $3 \cdot y = 450$



O $x : 2 = 120$

I $330 : y = 3$

L $a \cdot 7 = 420$



2. **Sxemalar** bo'yicha tenglamalar tuzing va ularni yeching.



3. Ifodalarning qiymatini **sharhlab** hisoblang va ularni **taqqoslang**.

a) $587 \cdot 324$ ☐ $945 \cdot 135$

d) $128 \cdot 621$ ☐ $273 \cdot 354$

b) $329 \cdot 276$ ☐ $478 \cdot 158$

e) $482 \cdot 235$ ☐ $345 \cdot 274$



4. Ikki qavatli sayyohlik avtobusida Yaponiya va Xitoydan kelgan sayyohlar ketmoqda. Jadvaldan foydalanib, avtobusdagi jami sayyohlar sonini aniqlang.



	I qavat	II qavat
yaponlar	8 nafar	? nafar, 8 nafar ko'p
xitoyliklar	? nafar, 5 marta ko'p	17 nafar
jami	(?) nafar	



5. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $6 \text{ h } 23 \text{ min } 32 \text{ s} + 7 \text{ h } 19 \text{ min } 54 \text{ s}$

b) $8 \text{ h } 17 \text{ min } 5 \text{ s} - 3 \text{ h } 28 \text{ min } 46 \text{ s}$

d) $(6 \text{ d } 23 \text{ h} + 3 \text{ d } 16 \text{ h}) : 5$


e) $(6 \text{ d } 7 \text{ h} - 2 \text{ d } 13 \text{ h}) \cdot 4$

1 soat = 60 minut
5 soat = 300 minut
1 sutka = 24 soat
5 sutka = ? soat







6. Katakli qog'ozga berilgan shaklning andazasini chizing. Shaklni uchta bir xil qismga qanday ajratish mumkinligi haqida o'ylab ko'ring.



7. Shakllarning **bo'yalgan** qismlari yuzini toping.



8. Tabiat muzeyiga sayohatga ikkinchi va uchinchi sinf o'quvchilari borishdi. Ikkinchi sinf o'quvchilari har birida 40 nafardan bo'lgan 3 ta avtobusda, uchinchi sinf o'quvchilari esa har birida 30 nafardan bo'lgan 5 ta avtobusda borishdi. Jami necha nafar o'quvchi sayohatga borgan?

	1 ta avtobusdagi o'quvchilar soni	avtobuslar soni	jami o'quvchilar soni
2-sinf	40 nafar	3 ta	? nafar
3-sinf	30 nafar	5 ta	? nafar
			? nafar

9. Tenglamalarni yeching.

a) $(7\,521 + x) \cdot 24 : 20 = 9\,438$

b) $600\,000 - 780 \cdot (300 - y) = 486\,120$

13–14-daralar. 1-nazorat ishi.
Xatolar ustida ishlash

